“Özkimyosanoat” AJ: eksport hajmi 568 million dollarga yetdi

// 05 November 2026 yil
https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/oezkimyosanoat-aj-eksport-hajmi-568-million-dollarga-yetdi



2026-yilning 9 oyi davomida “Özkimyosanoat” aktsiyadorlik jamiyati tizimidagi korxonalar tomonidan jami **568 million dollarlik kimyo mahsulotlari eksport qilindi.**

Bu belgilangan rejaga nisbatan 111 foizni, ötgan yilning mos davriga nisbatan esa 116 foizni taşkil etdi.

Eksport tarkibida asosiy ulushni quyidagi mahsulotlar taşkil etdi:

- **Karbamid** — 116,1 mln dollar;
- **Ammiakli selitra** — 93,5 mln dollar;
- **Xlorli kaliy** — 42,3 mln dollar;
- **Superfosfat** — 16,4 mln dollar;
- **Past ziçlikdagi ammoniy nitrat** — 10,3 mln dollar;
- **KMTS va PATS** — 6,3 mln dollar.

Mazkur körsatkiçlar kimyo sanoati korxonalarining eksport salohiyati izçil oşib borayotgani, mahsulotlarni taşqi bozorlarga yetkazib beriş hajmi kengayayotganidan dalolat beradi.

Eksport geografiyasini kengaytiriş, taşqi bozorlarda raqobatbardoşlikni oşiriş hamda yuqori qöşilgan qiymatga ega kimyo mahsulotlari yetkazib beriş hajmini köpaytiriş “Özkimyosanoat” AJ tizimidagi korxonalarning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.